

SUYIMA G'ANIYEVA-BUYUK NAVOIYSHUNOS OLIMA

Xudoyorova Nigora Nuriddinovna

Termiz muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Suyima G'aniyeva-buyuk navoiyshunos olima, haoti va ijodi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Olima, o'zbek ayollaridan, yetishib chiqqan, birinchi, sharqshunos-matnshunos, filologiya fanlari nomzodi, Abu Rayhon Beruniy, O'zbekiston Respublikasi Davlat.

Taniqli adabiyotshunos olima, o'zbek ayollaridan yetishib chiqqan birinchi sharqshunos-matnshunos, filologiya fanlari nomzodi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotining sovrindori Suyima G'aniyeva 70 yoshga to'ldi.

Suyima G'aniyevaning nomi mumtoz adabiyotimizning tolmas tadqiqotchisi, yetakchi navoiyshunoslardan biri sifatida elimizda ma'lum va mashxurdir.

Suyima G'aniyeva 1932-yilda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug'ildi. O'rta maktabning yettinchi sinfini tugatib, O'rta Osiyo Davlat universitetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirgan bo'lajak olima 1952-yilda sharqshunoslik fakultetining Eron filologiyasi bo'limini muvaffaqiyatli tamomlaydi.

1952-56-yillarda Leningrad Davlat universitetining Sharq fakulteti aspiranturasida tahsil oldi va yirik sharqshunos A.N.Boldirev rahbarligida "Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiri III va IX majlislarining ilmiy-tanqidiy matni va adabiy-tarixiy tahlili" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Aspiranturani tamomlagan S.G'aniyeva O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga ishga keladi va uning shundan keyingi butun ilmiy faoliyati mazkur ilm dargohi bilan bog'liq bo'ldi.

Ilmiy qiziqish doirasi benihoyat keng, serqirra ijodkor sifatida S.G'aniyeva adabiyotshunoslikning ko'p sohalariga oid tadqiqotlar yaratdi, lekin olima ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishi navoiyshunoslik bo'lib qoldi va o'zining salohiyati, kuch-g'ayratini Navoiy ijodini o'rganish va targ'ib etishga bag'ishladi, bu ishni u, ta'bir joiz bo'lsa, o'z hayotining maqsadi va mazmuni deb bildi. S.G'aniyevaning "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matniga bag'ishlangan tadqiqoti bu sohadagi birinchi qadam bo'lgan bo'lsa, keyinchalik "Alisher Navoiy" (hayoti va ijodi) (1968) monografiyasi, "Navoiyning prozaik asarlari" (1981) risolasi, "Nasr va badiiyat" (1981), "Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari" (1982), "Navoiy nasri nafosati" (2000) kabi tadqiqotlari yuzaga keldi. Bu asarlarida olima navoiyshunoslikda erishilgan yutuqlarga tayangan holda, o'z ilmiy-nazariy fikrlari, yangicha talqin va qarashlarni olg'a suradi.

S.G'aniyeva ilmiy faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi o'zbek adabiyoti tarixi masalalari bilan bog'liq. Besh jildlik "O'zbek adabiyoti tarixi", ikki jildlik "Istoriya uzbekskoy literaturiy" kabi yirik tadqiqotlarning, "Navoiy va adabiy ta'sir masalalari" (1968), "O'zbek adabiyoti tarixidan" (1976), "Navoiy va ijod saboqlari" (1981), "O'zbek nasri tarixidan" (1982), "Navoiyning adabiy mahorati masalalari" (1993), "Navoiyning ijod olami" (2001) kabi bir qator to'plamlar olimaning faol ishtirokida dunyoga keldi. Ulardan S.G'aniyevaning Navoiy, Husayn Boyqaro, temuriy shahzoda -shoirilar ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'rin olgan.

Olimaning matnshunos sifatida amalga oshirgan ishlari alohida diqqatga sazovordir. U ko'p jildli "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasi tarkibiga kirgan asarlarning matnini tayyorlashga, o'zbek mumtoz adabiyotining bir qator namoyondalari "Tanlangan

asarlari”ning nashr etilishiga hissa qo’shdi. Navoiy asarlari o’n besh jildligining o’n ikkinchi jildini (“Majolis un-nafois”) nashrga tayyorladi, bir qancha nasriy asarlariga muharrirlik qildi. S.G’aniyeva A.Navoiyning yigirma jildlik mukammal asrlar to’plamini nashrga tayyorlashda faol ishtirok etdi. Xususan, so’ngi besh jildning og’irligini o’z zimmasiga oldi. Navoiyning bir qator nasriy asarlarini to’la holda ilmiy izohlari, lozim joyda tarjimalari bilan nashrga tayyorladi. Navoiy dostonlaridan “Farxod va Shirin” ham izohlari bilan tayyorlanib, yigirma jildlik tarkibida chop etildi. Ushbu nashrlarni varaqlagan har bir o’quvchi S.G’aniyevaning zukko, bilimdon matnshunos ekanligiga, o’z ishiga o’ta mas’uliyat bilan yondoshganligi, matnlardagi har bir so’z, har bir jumlagacha diqqat-e’tibor bilan qaraganligiga ishonch hosil qiladi.

S.G’aniyeva mohir tarjimon sifatida tarjimashunoslik rivojiga ham ulkan hissa qo’shdi. U Navoiyning (“Majolis un-nafois”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”) asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. “Munajat”ning S.G’aniyeva tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi esa Moskva matbuotida e’lon qilindi. Olimaning tarjimonlik mahorati Sharqning mashhur asarlaridan bo’lgan “Kalila va Dimna”ning fors tilidan, ozorbayjon olimi H. Oraslining “Imodiddin Nasimiy”, “Xoqoniy” risolalarining ozor tilidan o’zbekchaga o’g’irganda ham namoyon bo’ldi. Shuningdek, o’zbek kitobxonlari A.N.Boldirevning “Xoja Ahror”, R.Kiknadzening “Mirzo Ulug’bek” tadqiqotlari bilan ham S.G’aniyeva tarjimasi orqali tanishdilar.

Qirq yillik ilmiy faoliyati davomida S.G’aniyevaning yigirmadan ortiq kitob va risolalari, uch yuzdan ortiq ilmiy-ommabop maqolalari, o’ndan ortiq tarjimalari e’lon qilingan.

S.G’aniyeva ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bir qatorda, oliy o’quv yurtlarida ham dars berib, yoshlarga o’z bilim va tajribalarini o’rgatib kelmoqda. Ayni paytda yosh tadqiqotchilarga ham rahbarlik qilib, mehribon ustoz, talabchan murabbiy sifatida ilmiy kadrlar tayyorlashga ham munosib ulush qo’shmoqda.

Filologiya fanlari nomzodi, Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti dotsenti, Toshkent Davlat Konservatoriyasi professori, O’zR FA Til va adabiyot institutining yetakchi ilmiy xodimi, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi S.G’aniyevaning ilmiy-pedagogik faoliyati hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O’zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori (1992), “El-yurt hurmati” ordeni (2000), bir nechta faxriy yorliqlar sohibidir.

Biz, S.G’aniyevaning hamkasblari va shogirdlari olimani muborak 70 yoshi bilan qutlar ekanmiz, unga uzoq umr, sihat-salomatlik, yangidan-yangi ilmiy-ijodiy parvozlar tilab qolamiz.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. N. Xudoyorova "DEVONI FONIY"-NAVOIY IJODINING GULTOJI // SAI. 2022. №B6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/devoni-foniy-navoiy-ijodining-gultoji> (дата обращения: 09.06.2024).
2. N.Xudoyorova. (2022). "DEVONI FONIY" - A MASTERPIECE OF CREATIVITY OF NAVOI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7140388>
3. Hamid Sulaymon .Tekstologicheskiye issledovaniye liriki Alishera Navoi. ADD,Tashkent ,1961,str 38-39.